


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019-yil yanvar-oktabr*)

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi 129 565,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 20 570,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 128,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 108 995,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 13 042,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,9 % ga kamaygan) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Samarqand, Navoiy, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumotlar

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,6 % ga o'sdi va 20 570,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,9 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 108 995,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 3,7 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,1 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

(yanvar-oktabr, mlrd. so'm, ulush %)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi, %**



Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ulushi bo‘yicha Qashqadaryo (96,8 %), Sirdaryo (94,6 %), Toshkent (90,5 %), Surxondaryo (89,7 %) va Namangan (87,5 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (28,1 %), Xorazm viloyatida (24,9 %) va Buxoro viloyatida (14,0 %) kuzatilgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O‘zbekiston Respublikasi	20 570,3	128,6	108 995,4	103,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	543,0	131,4	3 616,3	106,0

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	1 285,5	130,5	8 393,4	103,2
Buxoro	1 121,9	126,0	6 904,6	105,7
Jizzax	631,7	166,2	4 142,4	106,9
Qashqadaryo	253,9	37,4	7 757,6	110,9
Navoiy	681,9	172,6	4 496,8	102,5
Namangan	968,9	155,8	6 796,9	104,6
Samarqand	1 477,6	153,5	9 504,1	102,7
Surxondaryo	823,5	133,7	7 144,4	104,4
Sirdaryo	113,5	134,6	2 000,8	104,5
Toshkent	1 373,6	92,9	13 110,9	105,7
Farg'ona	1 313,9	115,0	8 992,7	103,4
Xorazm	1 287,0	149,0	3 892,0	105,0
Toshkent sh.	8 694,5	134,2	22 242,6	99,3


Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %



Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Chakana savdo tovar aylanmasida mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	129 565,7	129 330,5	235,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 159,3	4 158,2	1,1
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	9 678,8	9 673,4	5,4
Buxoro	8 026,5	8 023,5	3,0
Jizzax	4 774,1	4 771,1	2,9
Qashqadaryo	8 011,4	8 009,4	2,1
Navoiy	5 178,8	5 146,3	32,5
Namangan	7 765,9	7 762,7	3,2
Samarqand	10 981,7	10 979,7	2,0
Surxondaryo	7 967,9	7 966,4	1,5
Sirdaryo	2 114,3	2 114,3	-
Toshkent	14 484,5	14 480,7	3,8
Farg'ona	10 306,5	10 306,5	0,0
Xorazm	5 179,0	5 178,2	0,8
Toshkent sh.	30 937,2	30 760,1	177,0

2019-yil yanvar-oktabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni boshqa hududlar bilan solishtirganda eng yuqorisi Toshkent shahri (12 216,5 ming so'm), Navoiy (5 252,3 ming so'm) va Toshkent (4 970,5 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.


2019 yil yanvar-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 868,8 ming so'm (o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 5,0 % ga o'sgan). Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	3 868,8	105,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 212,6	107,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 133,8	104,2
Buxoro	4 212,5	106,4
Jizzax	3 501,6	109,9
Qashqadaryo	2 474,8	102,3
Navoiy	5 252,3	106,4
Namangan	2 799,3	106,9
Samarqand	2 868,8	105,2
Surxondaryo	3 075,1	104,5
Sirdaryo	2 529,6	103,9
Toshkent	4 970,5	103,0
Farg'ona	2 779,5	102,9
Xorazm	2 805,5	111,4
Toshkent sh.	12 216,5	104,9


Shuningdek, 2019-yilning yanvar-oktabr oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 % ni tashkil etib, 3 660,3 mlrd. so'mga yetdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 % o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 83,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)




Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasining nisbatan yuqori hajmi Toshkent shahriga (respublikaning jami savdo aylanmasida 42,3 %) to'g'ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajmlar Toshkent (10,3 %), Buxoro (6,9 %) va Samarqand (6,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat umumiy ovqatlanish korxonalarining jami savdo aylanmasidagi ulushi 5,3 % dan 5,0 % ga kamaydi.

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mln. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so'm)	davlat mulki (mln. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	3 660 295,4	3 477 024,1	183 271,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	133 970,3	133 772,6	197,7
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	110 475,6	110 475,6	-
Buxoro	251 819,2	251 766,5	52,7
Jizzax	91 747,3	91 445,6	301,7
Qashqadaryo	168 591,9	168 284,7	307,2
Navoiy	124 248,3	114 326,8	9 921,5
Namangan	115 294,0	114 592,4	701,6
Samarqand	245 450,7	244 528,7	922,0
Surxondaryo	170 147,6	169 688,5	459,0
Sirdaryo	43 636,1	43 636,1	-

	Jami (mln. so‘m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so‘m)	davlat mulki (mln. so‘m)
Toshkent	377 905,4	376 791,3	1 114,1
Farg‘ona	206 314,8	206 313,2	1,6
Xorazm	71 867,3	71 311,0	556,3
Toshkent sh.	1 548 827,1	1 380 091,2	168 735,9


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr*)

Yil boshidan respublika bo‘yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 63 121,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga o‘sgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub’ektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-oktabr oyi yakunlariga ko‘ra, 44 579,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga o‘sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,6 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (79,5 %), Farg‘ona (79,8 %), Samarqand (70,0%), Andijon (68,4%) va Buxoro (68,0 %) viloyatlarida yuqori bo‘lgan.

Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




*dastlabki ma’lumotlar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,4 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Toshkent (54,0 %) va Navoiy (56,5 %) viloyatlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	63 121,2	105,8	18 541,5	108,3	44 579,7	104,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 410,4	113,9	601,2	136,6	809,2	101,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	2 145,9	100,8	678,4	96,1	1 467,5	103,1
Buxoro	1 812,8	98,4	580,8	85,1	1 232,0	106,2
Jizzax	1 848,9	116,1	767,0	116,8	1 081,8	115,6
Qashqadaryo	2 226,0	95,6	790,6	75,2	1 435,4	112,4
Navoiy	1 749,0	94,7	987,6	92,4	761,4	97,8
Namangan	1 791,0	108,8	891,2	117,0	899,8	101,6
Samarqand	4 456,7	106,5	1 338,3	120,8	3 118,4	101,4
Surxondaryo	1 939,3	99,5	642,6	88,6	1 296,7	105,9
Sirdaryo	1 139,9	98,1	378,2	86,3	761,8	105,2
Toshkent	5 700,2	92,8	3 075,9	85,0	2 624,4	104,1
Farg'ona	4 142,8	107,4	837,3	103,7	3 305,5	108,4
Xorazm	1 517,7	107,1	582,0	106,7	935,7	107,3
Toshkent sh.	31 240,6	110,2	6 390,5	141,4	24 850,1	104,3

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %




**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	63 121,2	63 053,5	67,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 410,4	1 410,4	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	2 145,9	2 145,2	0,7
Buxoro	1 812,8	1 812,8	-
Jizzax	1 848,9	1 848,9	-
Qashqadaryo	2 226,0	2 226,0	-
Navoiy	1 749,0	1 748,1	0,9
Namangan	1 791,0	1 791,0	-
Samarqand	4 456,7	4 456,7	-
Surxondaryo	1 939,3	1 939,2	0,1
Sirdaryo	1 139,9	1 139,9	-
Toshkent	5 700,2	5 698,7	1,5
Farg'ona	4 142,8	4 142,8	-
Xorazm	1 517,7	1 517,7	-
Toshkent sh.	31 240,6	31 176,1	64,5

Joriy yilning yanvar-oktabr oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 63 121,2 mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega sub'ektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 63 053,5 mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 67,7 mlrd.so'mni tashkil etdi. Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent shahar 49,5 %, Toshkent 9,0 %, Samarqand 7,1 %, Farg'ona 6,6 % viloyatlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng past o'sish sur'atlari Surxondaryo (99,5 %) Buxoro (98,4 %), Sirdaryo (98,1 %), Qashqadaryo (95,6 %), Navoiy (94,7 %) va Toshkent (92,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari esa Jizzax viloyati (116,1%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (113,9%) va Toshkent shahrida (110,2%) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**